

PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING JABRLANGAN SHAXSLAR BILAN ISHLASH FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdug'aniev Anvar Dilshod o'g'li

IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi, 313 guruh kursanti.

Annotatsiya: Maqolada profilaktika inspektorlarining jabrlangan shaxslar bilan ishlash faoliyati tushunchasi, ushbu faoliyatni amalga oshirish samaradorligiga erishishda hamkorlik masalalari, viktimologik profilaktika sohasidagi chora tadbirlar bo'yicha mavjud muammolar, o'ziga xos jihatlari va takliflar bildirilgan.

Kalit so'zlar: jamoat tartibi, tajovuz, huquqbuzarlik, jinoyat, huquqbuzarliklar profilaktikasi, ta'sir chorasi, ijtimoiy himoya, ruhiy ta'sir, jismoniy zo'rlik ishlatish, himoyalash choralari.

Huquq-tartibotni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish borasida O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar natijalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, xar qanday huquqbuzarlikni o'z vaqtida aniqlash va ochish, aybdoplarni konynda belgilangan tartibda jazoga tortish huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim o'rin tutadi.

Kuzatishlar va amaliyot tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda huquqbuzarliklardan jabrlangan shaxslar toifasini quyidagi toifalarga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq, bular:

–“odam savdosi”, “ekstremizm”, “terrorizm”, “ommaviy madaniyat”, narkotrafik va shu kabi boshqa ijtimoiy xavfli qilmishlar tahdidlaridan ogoh etish maqsadida aholining barcha qatlamiga;

–yong'in, yo'l-transport hodisalari, baxtsiz hodisalarga olib keladigan huquqbuzarliklar tahdididan ogoh etish maqsadida aholini barcha qatlamiga;

–ijtimoiy-ruhiy, jismoniy-fiziologik, kasbi, ijtimoiymoddiy ahvoli va boshqa xususiyatlari bilan mulkka qarshi jinoyatlar jabrlanuvchisiga aylanish xavfi mavjud bo'lgan aholi qatlamiga;

–o'zining g'ayriijtimoiy xulq-atvori xavfiligi tufayli shaxsga va mulkka qarshi huquqbuzarliklar jabrlanuvchisiga aylanish moyilligi bo'lgan shaxslarga;

–oila-turmush va maishiy sohada tez-tez nizolar, kelishmovchiliklar keltirib chiqaruvchi va boshqa salbiy xususiyatlarga ega toifadagi shaxslarga nisbatan umumiy, maxsus va yakka tartibda ushbu hamda boshqa qonunlar talablari asosida amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda ta'kidlash joizki, ushbu turdagi shaxslar bilan ishlash profilaktikasi sifatida:

a) huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli mavjud bo'lgan;

b) huquqbuzarliklardan jabrlangan; v) g'ayriijtimoiy xulq-atvorli va boshqa huquqbuzarlikdan jabrlanishga moyilligi yuqori bo'lgan shaxslarga nisbatan amalga oshirish maqsadga muvofiq va mantiqan to'g'ridir.

Jabrlanuvchilar profilaktikasini tashkil qilishda huquqbuzarliklapning oldini olish sub'ektlarini uch gyruxga bo'lib o'rganishimiz maqsadga muvofiqdir.

Birinchi guruxga, huquqbuzarlikni oldini olish faoliyatini tashkil etish, unga rahbarlik qilish va barcha sub'ektlar faoliyatini muvofaklashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiruvchi sub'ektlar tashkil qiladi:

Ikkinchi guruxga, o'zlarining asosiy vazifaci huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha bevosita chora-tadbirlarni amalga oshiruvchi sub'ektlarni kiritamiz;

Uchinchi guruxga, bevosita yakka tartibdagi huquqbuzarliklarning oldini olish bilan dastlabki bosqichda shug'ullanuvchi sub'ektlarni kiritish mumkin.

Fikrimnacha huquqbuzarliklarni tergov qilishda jinoyat qurbonlariga nicbatan moxirona yondashish xali to'la foydalanilmagan profilaktik imkoniyatlardan xicoblanadi, deyish mumkin. By imkoniyatdan ham profilaktikani ham individual profilaktikani amalga oshirishda foydalanish mumkin.

Jabrlangan shaxslar bilan ishlash faoliyatini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, viktimologik profilaktikaning usyllaridan foydalanish aloxida ahamiyat kasb etadi.

Huquqbuzarliklarning oldini olish va huquqbuzarlik qurbonlari conini imkon darajada kamaytirish uchun joylardagi huqyqni muxofaza qilish opganlari profilaktika inspektorlari bilan jiddiy shyg'yullanishlapi lozim.

Maxalliy davlat xokimiyati organlari faoliyati ham ularning o'ziga konunda ko'rsatib ko'yilgan kafolatdan odilona foydalanish, huquqbuzarliklarni oldini olishning yana bir amaliy ahamiyatini kuchaytiradi.

Profilaktika inspektorinig Jabrlangan shaxslar bilan ishlash faoliyatini amalga oshirishning o'ziga xos hususiyatlaridan biri bu maxalliy davlat xokimiyati organlari va uzini o'zi boshqarish orgalari bilan hamkorligidir.

Jabrlangan shaxslar bilan ishlash faoliyatini amalga oshirishning navbatdagi hucusiyatlaridan biri - amalga oshirilishi nazarda tutilayotgan tadbirlarda fuqarolarning oila, maishiy turmush, dam olish va bo'sh vaqtni qanday o'tkazayotganligiga tegishli shuninigdek ko'cha, maktab, o'kuv yurtlarida, ishlab chiqarishda, odamlapning nimalar bilan shug'ullanishini aniqlash, alkogolizm, narkomaniya kabi salbiy illatlapning ma'lum toifadagi odamlapga ta'ciri darajacini aniqlash inson ruxiyati, huqubuzar va jabrlanuvchi, ularning yashash muhiti kabi xolatlarga taalluqli tadbirlarni oldindan rejalashtirib olishdan iborat.

Bunda shaxs va uning atrofidagi muhit maxsus ijtimoiy birlik tarzida qaralishi kerak. Chunki bizning nazapimizda, huquqbuzarliklarninig viktimologik profilaktikasi faoliyatini amalga oshirishda huquqbuzar yoki jabrlanuvchining ijtimoiy muhit bilan aloqasi muhim rol o'ynaydi.

Huqyqbuzarliklarning kelib chiqishiga ko'maklashyvchi viktim omillar va xolatlarning yig'indici «xuqyqbuzar-jabrlanuvchi» munocabatlari darajasida o'rganib chiqilishi zaryriyati ham profilaktika inspektorinig Jabrlangan shaxslar bilan ishlash faoliyatini amalga oshirishning o'ziga xos xucusiyatlari jymlasiga kiradi.

Bunda jabrlanuvchi va huquqbuzar uning xulq-atvori o'ptacidagi sababiy bog'lanish diqqatmarkazida turishi kerak.

Jabrlangan shaxslar bilan ishlash faoliyatini amalga oshirishning subekti sifatida bajarayotgan funksiyalariga qarab shartli ravishda uch gyruxga bo'linadi.

Birinci gyruxga, bevosita huquqbuzarliklarning oldini olish bilan dastlabki boskichdan boshlab shug'yllanyvchn organlar, ya'ni huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari va profilaktika inspektorlarini kiritamiz.

Bu vazifani ular keng jamoatchilik ommasiga, ayniqsa oila, maktab, mexnat jamoalari va o'zini-o'zi boshqarish organlariga tayangan xolda huquqbuzarliklapni oldini olish faoliyatining boshqa bapcha sub'ektlari bilan hamkorlikda bajapishi lozim.

Ikkinchi guruxga, yyl xarakat havfcizligi hizmati, patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash, Davlat yong'in xavfsizligi hizmati, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmatlarini kiritishimiz mumkin. Bu hizmatlar o'z faoliyatlari davomida turli huquqbuzarliklarni keltiri6 chiqarishi mumkin bo'lgan viktimgen omillarni o'z vaktida aniklashlari va profilaktika hizmatlari bilan ularni bartaraf etish boracida hamkorlik qilishlari shart.

Uchinchi guruxga, huquqbuzarliklarni aniklash, ochish, huquqbuzarliklarni fosh qilish bu huquqbuzarliklar bo'yicha surishtiruv va dastlabki terrov olib boryvchi ichki ishlap opganlarini, ya'ni operativqidiruv, supipshtiruv, dastlabki tergov organlarini kiritishimiz mumkin.

Demak, ushbu organlarninr acosiy vazifasi huquqbuzarliklarning oldini olish shu jumladan viktimgologik profilaktika chora-tadbiplarini amalga oshirishdan iboratdir.

Jabrlangan shaxslar bilan ishlash faoliyatini amalga oshirishning navbatdagi o'ziga xos hucusiyatlaridan biri buhuquqbuzarliklarning viktimgologik profilak-tikasi chora-tadbirlari bo'lib ular quyidagilardan iborat:

- huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga nisbatan shaxsning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hisobga olingan holda profilaktika tadbirlarini o'tkazish;
- aholiga, shu jumladan huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga shaxslar o'rtasidagi nizolarni hal etish usullarini o'rgatish;
- huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarni aniqlash va himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish;
- huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan muassasalarni tashkil etish;
- huquqbuzarlikdan jabrlanuvchining jismoniy va psixologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan maxsus kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, uni qonunda nazarda tutilgan o'zini o'zi mudofaa qilish usullari va vositalari to'g'risida xabardor qilish;
- g'ayriijtimoiy xulq-atvor nisbatan tez-tez kuzatiladigan yoki huquqbuzarliklar tez-tez sodir bo'lib turadigan joylarni (hududlarni) muntazam ravishda nazorat qilish;
- hujum qilingan taqdirda zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat haqidagi ma'lumotlarni keng tarqatish yo'li bilan aholiga huquqiy tarbiya va ta'lim berish;
- g'ayriijtimoiy xulq-atvor, tayyorlanayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan huquqbuzarliklar to'g'risida axborot olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasa huzurida ishonch, tezkor aloqa telefonlarini, qutqaruv xizmatlarini tashkil etish;

- profilaktika dasturlari va tadbirlari loyihalarining ommaviy muhokamalarini tashkil etish, ularni amalga oshirish jarayonida muammolar va kamchiliklarni aniqlash hamda bartaraf etish maqsadida jahon Internet axborot tarmog'ida veb-saytlar, bloglar, chatlar tashkil qilish;

- huquqbuzarliklar profilaktikasining zamonaviy usullari to'g'risida elektron adabiyotlarni tarqatish.

- Jabrlangan shaxslar bilan ishlash qonun hujjatlariga muvofiq boshqa chora-tadbirlarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

Bu chora-tadbirlar avvalambor shaxsda, jamiyatga nicbatan zid bo'lgan yo'nalishni shakllantirishga ta'sir qiluvchi nosog'lom muhitni, undagi voqea xodisa va jarayonlarni, o'zining g'ayriijtimoiy xislatlari, hulqi, odatlari va xayot tarzi bilan viktimologik omillarni keltirib chiqaruvchi «xavfli gurux»ga kiruvchi shaxslarni aniqlash, ularni xisobga olish va ular bilan tarbiyaviy-ogoxlantiruvchi xarakterdagi ishlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Ma'lymki, iichki ishlar organlari xodimlarining huquq-

buzarliklarning oldini olish boracidari faoliyatlari murakkabligi va ko'p kirpaliligi, vakolatlari va vazifalari keng, turli xilligi va ulap ijtimoiy hayotning turli yunalishida inson xayoti va taqdiri uchun kurashishlari o'ziga xos ma'syiyatni talab qiladi. O'zga bir shaxs tinchligi va uning xayotini, havfsizligini ta'minlash, shuningdek, huquqbuzarlik qurboni turlarini sinchkovlik bilan o'rganib chiqish viktimologik sabab va sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha kerak bo'lgan tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazishni talab qiladi.

Fikrimizcha, shaxs kutilmagan vaziyatlar natijasida huquqbuzarlik qurboniga aylanmacligi uchun ma'naviy jixatdan tarbiyalangan bo'lmog'i zarur. Ta'lim va mexnat jamoalari ham insonning shaxs sifatida shakllanishi uchun asosiy muhit xicoblanadi. Ayniqca o'kuv-tarbiya muaccacalari voyaga yermagai yoshlapning shaxs sifatida shakllanishida jyda muhim o'rin tutadi. Chunki ular o'quv-tarbiya maskanida faqat bilim olish bilangina chegaralanmaydi balki undagi munosabatlar ta'sirida shakllanadi. Bularning hammasi zaminida tarbiya yotadi.

Turli xuqyqbuzarliklarning kelib chiqishi, avvalo huquqbuzarlik qurbonining o'z hatti-harakatlariga ko'p jixatdan bog'lik ekanligini ta'kidlab o'tdik. Jymladan, agar yosh qiz, tacodifiy tanishlap ortirishga intilca, ular bilan spirtli ichimliklar ichca, odamlapning e'tiborini o'ziga qaratishra harakat qilsa, y tacodifan huquqbuzarlik qurboniga aylanishi tabiiy yoki huquqbuzarlik qurboni o'zining harakteridagi ortiqcha ishonuvchanlik, soddalik, xafcalasizlik tufayli qimmatbaxo byyum yoki pullarini qarovciz qoldirca, bee'tibor tashlab qo'ysa, o'z-o'zidan o'g'irlik sodir bo'lishi mumkin.

Shuningdek, spirtli ichimlikni meyordan tashqari ichgan shaxs o'zgalapninr acabiga tegib, ularni xaqorat kilca, albatta janjal tashabbuschisi bo'lishi va natijada tan jaroxati olishi extimoldan xoli emas.

Profilaktika inspektorining huquqbuzarliklarninig viktimologik profilaktikasi faoliyatini amalga oshirish mana shu jixatlar bilan ham o'ziga xocdir.

Albatta, o'z hatti-harakatlari natijasida turli huquqbuzarliklar qurboniga aylanishi mumkin bo'lgan shaxslar bilan tashvikot, tapg'ibot tushuntirish ishlarini milliy kadriyatlar bilan uyg'ynlashtirgan xolda olib borish, shaxsning diniy-dunyoviy olamni boyitish viktimogen omillarning oldini olishda muhim vosita bo'lishi mumkin.

Jabrlangan shaxslar bilan ishlashni faoliyatini amalga oshirish bo'yicha shu narsani yodda tutish kerakki, huquqbuzarlik qurbonlarining biz yuqorida sanab o'tgan hatti-harakatlari yil xarakati xodicalari, badanga shikact yetkazish, o'g'rilik, bezorilik kabilarning codir etilishiga olib keladigan xolatlardan xicoblanadi.

Shuning uchun ham bizning nazapimizda profilaktika inspektorininig Jabrlangan shaxslar bilan ishlash faoliyatini amalga oshirish asosida bunday profilaktikaning tegishli tacnifi (klassifikatsiyaci) yotishi kerak, chunki viktimoloik profilaktikani amalga oshirishda huquqbuzarlik qurbonlariga differensiyalashgan xolda yondashuv asosiy o'rin tutadi Shyndan kelib chiqqan xolda aytish mumkinki, viktimologik profilaktika avvalambor, o'zini o'zi tarbiyalash, o'z hatti-harakatlarida salbiy yunalishdan tiyila bilish degani hamdir.

By erda gap har bir shaxcninr o'z qilmishlarini mustaqil o'ylab ko'ra olishi, ularni boshqara olishi zarurligi xaqida bormoqda.

Shuningdek, har qanday boshqaruv ta'siri jymladan, profilaktik ta'sir natijasida boshqarilayotgan kichik tizim o'z qiziqishlari, manfaatlari va maqsadlariga ega bo'ladi va ulardan kelib chiqib xatti-xarakatlarni amalga oshipadi.

Xuquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi faoliyatini amalga oshirishninig o'ziga hos muhim hucusiyati huquqbuzarlikka qarshi kurash bo'yicha hamkorlik qilishdir.

Bundan tashqari huquqbuzarliklapning oldin olish, unga qarshi kurash bo'yicha huquqbuzarlik jabrlanuvchilari bilan muomala qilish ular bilan suxbatlar olib borish bo'yicha yakka tartibdagi viktimologik profilaktikani ham amalga oshiradi.

Jabrlangan shaxslar bilan ishlash faoliyatini amalga oshirishning yana bir o'ziga hos hususiyalari bo'lib, ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi profilaktika inspektorlarining huqyqiy bilim saviyalari yukcak darajada bo'lishi lozimligidir.

Bu o'ta muhim masala bo'lib, viktimolorik profilaktikani amalga oshirishda profilaktika inspektorininig huqyqiy bilim va madaniyati darajasi jamoatchilik orasida huquqni muxofaza qilish va uni qo'llash bilan shug'ullanuvchi idoralarning nufuzi haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi.

Profilaktika inspektori tomonidan umuman xuquq-buzarliklarning oldini olishda huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi faoliyatini qay darajada to'g'ri amalga oshirilishiga qarab axolining bu organlar faoliyatiga samimiy, xayrixox munocabati shakllanib boradi.

Shu o'rinda tayanch punktlarida huquqbuzarliklarning oldini olishda, viktimologik profilaktikani amalga oshirishda profilaktika inspektorlari bilan maxalla posbonlari, pedagog-tarbiyachilar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish orgailari raiclari, yarashtirish komissiyalari, xotin-qizlar qo'mitalari, maktablardagi ota-onalar qo'mitalari ko'mgagiga tayanishlapi va boshqa jamoat tashkilotari o'rtasidagi hamkorlikni rejalashtirib olish va muntazam yo'lga qo'yish viktimologik profilaktika samaradorligini oshirishga qaratilagan muhim omillardan biri xicoblaiadi, deyish mumkin.

Bu maishiy turmush soxasida oilada, voyaga yetmaganlar o'rtasila huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim rol o'ynayli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/8440>.
2. O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 14 noyabrdagi "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-996-son qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrdagi «Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida» PF-209-son Farmoni.
4. Таштемиров А. А. Ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фош этишнинг ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари //World of Science. – 2023. – Т. 6. – №. 6. – С. 169-175.
5. Таштемиров А., Курчибоев Ж. Вояга етмаганлар ҳуқуқбузарлигининг профилактикасида таълим ва тарбиянинг ўрни ва аҳамияти //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 130-135.
6. Таштемиров А. А., Калауов С. А. Йўл ҳаракати хавфсизлиги ривожланиш концепциясининг истиқболлари ва киберхавфсизлигини таъминлаш зарурати //barqarorlik va etakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 8. – С. 245-250.
7. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий тармоқлар орқали содир этилаётган жиноятларга қарши курашиш чора-тадбирлари //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 24-31.
8. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий профилактика объекти сифатида алкоголизм таъсиридаги шахслар билан ишлаш фаолиятини такомиллаштириш //So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – Т. 6. – №. 12. – С. 552-558.
9. Tashtemirov A., Po'latov A. Ayollar jinoyatchiligining oldini olish chora-tadbirlari //Иновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 75-78.
10. Таштемиров А., Нурматов Н. Айрим хорижий давлатларнинг тезкор қидирув фаолиятида соҳавий ҳамкорликнинг таҳлили //Иновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 190-197.
11. Таштемиров А. А. и др. Зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тушунчаси ва ўзига хослиги //Innovative achievements in science 2024. – 2025. – Т. 4. – №. 37. – С. 82-90.